

## "SURXONDARYO VILOYATINING SAN'AT FIDOKORLARI"

**Behruz Toshtemirov Botirovich**

*O'zbekiston Respublikasi*

*Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani*

*5- sonli Bolalar musiqa va san'at  
maktabining teatr sinf o'quvchisi*

**Annastatsiya;** *San'at rivojiga buyuk hissa qo'shib, farzandlari, nabiralari, teatr sahnasining ardog'i, e'zozida bo'lib, keksalik gashtinini surayotgan aktyor, aktrisalari ko'pdir. Bu insonlar teatr sahnasiga hayotlarni baxshi etgan. Kun-u tun shu sohada izlanishgan. Ular Surxondaryo teatr yuksalishiga, ijodiy kamolotida xizmatlar juda katta. Ular yosh avlodlarga ham ixtirom bilan yordam qo'lini cho'zib yordam berishyapdi.*

**Kalit so'zi;** *Oliya Olimova Jarqo'rg'on teatrining tarixini qanday eslaydi, Jarqo'rg'on tumaning teatr jamoasi haqida tushuncha, Xadicha Bobonovaning, A. Karimov, Rahim Kamoljonov, Abdurahmon Rahmatov, Zohid Olimov, Xasan Muhidinov, Soyib Nurmatovlar hayoti haqida o'chmas satrlar.*

O'z davrida mashhur insonlarimizdan biri Oliya Olimova o'sha kunlarni shunday eslaydi; "Men bir yillik o'qituvchilik kursini tugatib Jarqo'rg'on nosyolkasiga ishga keldim. O'zim o'shlik yerlik bo'lganim uchunmi, bu yerni ob-xavosiga tez kunika olmadim. O'z yurtimga ketmoqchi ham bo'ldi. Ammo shu payt "Viloyatda xalq teatri ochilibdi" degan xabarni eshitdim. Yoshligimdan san'atga ishtiyoqim juda baland edi. Keyinchalik Xalq teatrining badiiy rahbari Qori aka Madaminov meni kutib oldi va qobilyatimni sinab ko'rib jamoasiga qabul qildi. Men asta sekin badiiy obrazlarda rol ijro eta boshladim. Menimcha 1935-yilning o'rtalarida edi, rejissor Saloxiy G'. Zafariyning "Xalima" dramasi sahnalashtirish ustida ilk ijodiy ishini boshladik. Viloyotlarga ham konsert dasturlar qo'ya boshladik. Biz qo'yadigan spektakl tomoshabinlarga juda yoqqa boshladi. Chunki spektakl tomoshabinlar tomonidan ko'tarinki kayfiyat va uzluksiz olqishlar bilan qarshi olingan edi" shunday shirin xotiralar bilan eslaydi.

1933-yildan teatr jamoalari to'plana boshlagan. Ular teatr uchun juda ishlar qilgan. Kun-u tun teatr obrazlar bilan mashg'ul bo'lishgan hamda izlanishgandir. Necha yillar o'tsaki ularning nomlari bizning yodimizdadir. Teatr jamoasi bugungi kundagi yutuq va imkoniyatlariga osonlik bilan erishgani yo'q. Bu yo'lda, topgan bilan birga yo'qotishlar ham bo'lganligi e'tirof etilmog'i kerak. Teatrning ilk foaliyatida kechgan mashaqatli damlar, g'ildirakustida o'tgan umr, och-nahor va yupun xolatda voha bo'lib kezilgan ijodiy safarlar xotiradan hech qachon o'chmaydi.

Xadicha Bobonova 1941-yildan to umrinng oxiriga qadar butun hayotini Surxondaryo madaniyati va san'ati rivojiga baxsh etgan. Undagi qobiliyat hech bir aktrisalarda yo'q edi. U shunday rollarni ijro qilardi. Unga shunday iste'dod berilgan edi. Shuning uchun uzbek teatr

san'atining buyuk darg'alari bo'lib qoladi.A.Karimov 1947-1990 yillar davomida teatrd bosh dirijor va deriktor lavozimlarida ishlagan.Dirijorlik sifatida chuqur bilimlarga ega.A.Karimov viloyat teatrining ijodiy yutuqlari yo'lida samarali ijoda qilgan.Rahim Komiljanov ko'plab musiqiy sahnalarni sahnalashtirgan.Dirijorlik vazifasida foaliyat yuritgan.Surxondaryo teatri tarixidan,qalbimiz hech qachon o'chmaydi.Rekvizator va keyinchalik qaytarilmas obrazlar yaratib Abdurahmon Rahmatov Surxondaryo teatr yetuklik darajasiga ko'targan,"O'zbekiston xalq artisti" davlat mukofoti bilan taqdirlangan.Surxondaryo teatri nufuzini ko'tarishda ijodiy izlanishlar olib bormoqda.Aktyor ijodi teatrning bugungi kundagi yoshlarga ibrat bo'lib kelyapdi.Zohid Olimov Surxondaryo viloyati drama teatri tashkil topishiga munosib hissa qo'shgan aktyor va rejissor san'at sohasiga fidokorana xizmat qilib o'zidan o'chmas iz qoldirgan.X.Muhidinov nayob aktyor edi.1935 yil to umrining oxicha qadar Surxon vohasiga san'atiga juda katta hissa qo'shga insondir.U insoning obrazlari hamisha ajralib turadi,tomoshabinlarga barcha obrazlari ma'qul kelgan.S.Nurmatov San'atkorlar davomchisi kuchli aktyor Surxondaryo teatrida ijod qilgan.U yaratgan obrazlar""Toshtemir"spektaklida Bozorkum,"Jon qizlar"da rais,"Ravshan va Zulxumor"da Ersak obrazlarni mahorat bilan yarata olgan.Bunday ulug',san'atga hisa qo'shgan san'atkorlar san'at tarixiga o'chmas iz qoldirgandir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;**

- 1.F.Abduvohidov kevha bugun kitobi. 2017 yil "Vorislarnashriyoti"MCHJ.
- 2.Manon uyg'ur nomidagi Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri 80 yoshda kitobi.Termiz-2015.